



XORIJIY TILLARNI O'RGANISH VA O'QITISHDA YANGILANGAN
KONSTITUTSIYANING AHAMIYATI.

Shuxratbekova Zaxrooyim Xurshidbek qizi.

O'zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti

Xorijiy til va adabiyot 3-ingliz fakultet 2423-guruh talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida Xorijiy tilni o'rganish va o'qitish to'g'risidagi muhim qaror, tamoyillar, uning huquqiy chegara va erkinliklari hamda yoshlar hayotidagi muhim vazifalari to'g'risida so'z boradi. Mamlakatning rivojlanishi hamda yuksalishida bugungi yosh avlodni xorijiy tilni bilishi va uni jahon maydonlarida tatbiq etadi olishi uchun zarur bo'lgan barcha mexanizmlar yaratildi.*

Kalit so'zlar: *Yoshlar huquqlari, Konstitutsiya va qonunlar, ta'lim, salohiyat, imkoniyat, huquqni himoya qilish, mexanizmlar, xalqaro munosabat.*

Kirish: Bugungi globallashuv davrida xorijiy tilni o'rganish va o'qitish jarayoni nafaqat ilmiy va ta'limiy, balki madaniy va iqtisodiy aloqalarning rivojlanishida muhim rol o'ynamoqda. O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasi bu jarayonni yangilangan huquqiy tamoyil va asoslari bilan ta'minlaydi. Xorijiy tilni o'qitish jarayonida Konstitutsiya muhim ro'l o'ynaydi. Avvalo uning shakllanishi va kelib chiqishiga to'xtalib o'tsak.

Bosh Qomusimiz Konstitutsiyaning tarixi.

Birinchi Prezidentimiz Muhtaram Islom Abdug'aniyevich Karimov boshchiligida 1990-yil iyun oyida tuzilgan komissiyaning ikki yillik mashaqqatli mehnatlari natijasida Bosh Qomusimizning birinchi, ikkinchi so'ngra uchinchi loyihalari ishlab chiqildi. Konstitutsiyamiz ikki marotaba -1992-yil sentabr va noyabr oylarida umumxalq muhiqamasuga taqdim etildi. Keng jamoatchilik ishtirok etgan ushbu muhokama natijasida 100 ga yaqin tuzatishlar kiritildi .1992-yil 8-dwkabr kuni Oliy Kengash sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Mana shu o'tgan chorak asrdan ortiq vaqt mobaynida mamlakatimizdagi tub islohot va o'zgarishlarning barchasi Konstitutsiyamiz asosida amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, konstitutsiyamizda inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosiy prinsiplarida o'z aksini topgan. Mazkur deklaratsiyasini 2018-yil da 70 yilligi butun dunyoda keng nishonlandi. 2018-yil noyabr oyida Samarqand shaxrida inson huquqlari bo'yicha Osiyo xalqaro anjumani o'tkazildi.Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan «Yangi Ózbekiston taraqqiyot strategiyasi «qabul qilinganini ta'kidlash o'rinli albatta. Mazkur strategiya 7 yo'nalish va 100 ta maqsadlarni óz ichiga qamrab olgan. Yana bir tarixiy voqealar -bu O'zbekistonning 65 foizga yangilangan Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi qabul qilinganligi hisoblanadi. Hususan, 2023-yil 30-aprelda o'zgartirishlar kiritish bóyicha «Konstitutsiya O'zimizniki!» «Befarq emasman!



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



«Shiori ostida referendum o'tkazildi. Bugunga qadar 1992-yildan buyon Konstitutsiyasiga jami 15 marta o'zgartirish kiritilgan edi. Bu safar ko'lami kattaligi natijasida Konstitutaiyamizning Yangi tahriri qabul qilinib natijada: Moddalar-128 ta dan 155 taga, Normalar 275 tadan 434 taga oshdi bu o'zgartirishlar 2023-yil 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi.

Konstitutsiyaning Xorijiy tilni o'qitish va o'rganishdagi ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining yangilangan Konstitutsiyasida ta'lim huquqi yanada kengaytirilib hamda asosiy e'tiborga olingan. Ta'lim olish har bir fuqaro uchun nafaqat zaruriy huquq sifatida, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivoji uchun zaruriy vosita sifatida taqdim etilgan. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasidagi o'zgartirishlar xorijiy tillarni o'rganish hamda o'qitishga bo'lgan talab va ehtiyojni yuqori darajaga ko'taradi. Ta'lim tizimidagi 2 bandan iborat bo'lgan o'qituvchilarga qaratilgan quyidagi asosiy e'tibor

“O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma‘naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e‘tirof etiladi.”

“Davlat o‘qituvchilarning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘shisi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi.” buning yorqin namunasi. Shunday qilib xorijiy tillarni o'qitish va ularni o'rganish fuqarolarning nafaqat ta'lim tizimidagi muhim qismi, balki ularning xalqaro hamkorlikda qatnashishi, iqtisodiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishi, va madaniy almashuvlarda ishtirok etish imkonini yanada oshishiga sabab bo'ladi. Bosh Qomusimizda davlat tili-O'zbek tili ekanligi ta'kidlangan bo'lsada, boshqa tillarga bo'lgan ehtiyoj, ularni o'rganish va rivojlantirish siyosati ta'kidlangan. Bu, o'z navbatida xorijiy tillarni o'qitish xalqaro o'zbek tilining rivojiga hissa qo'shadi va shu bilan birga xalqaro tillarni o'rganish, zamonaviy texnologiyalar va ilm fan sohasida yangiliklar yaratish va o'z navbatida ta'lim tizimini global miqyosda raqobatbardosh bo'lishida muhim omil hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyada xalqaro munosabatlar va integratsiyalashuv alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonning jahon bilan aloqalari, xalqaro platformalarda ishtiroki, va mamlakatni global miqyosda tanitishni kuchaytirishga muhim hissa qo'shadi. Xalqaro munosabatlar va hamkorliklar, madaniy almashuvlar, ilmiy izlanishlar, iqtisodiy va diplomatik hamkorliklarda chet tilini bilish muhim jihatlardan hisoblangan. Konstitutsiyamiz tomonidan qo'llab quvvatlangan hamda kafolatlangan xalqaro aloqalarni rivojlantirish siyosati. Xorijiy tilning rivojida asosiy strategik tamoyillardan biri hisoblanadi. Shuningdek, Konstitutsiyamizda har bir fuqaroning shaxsiy rivojlanish huquqi, xorijiy til yordamida ilmiy-ijtimoiy professional jihatidan rivojlanishiga tayanch hisoblanadi.

Yosh avlodni global muhitdagi erkin muloqoti, iqtisodiy va madaniy sohalarda yutuqlarga erishishida shaxsiy erkinlikni ta'minlash va jamiyat rivojiga hissa qo'shish yo'lida xorijiy til muhim ro'l o'ynaydi. Bundan tashqari yangilangan Konstitutsiyasida ta'lim tizimini modernizatsiyalash, ta'lim jarayonida yangi interaktiv o'qitish usullari, onlayn



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



kurslar va raqamli platformalar kabi metodologiyalarni o'zida mujassamlashtiradi. Bu esa o'z o'zidan yangi ta'lim tizimida chet tillarini o'rganish jarayonida davlatning yangi siyosati va ta'lim rivojida o'quvchilarning bilim va malakalarini yuqori darajaga ko'tarishda muhim omillardan hisoblanadi. Xalqari standartlar asosida baholanadigan IELTS, TOPIC, SAT, TOEFL, DUO LINGO kabi sertifikatlarni yuqori ballar orqali yoshlarimiz tomonidan qayd etayotgani buning yaqqol misolidir. Bunday natijalarning asosida Yangi Konstitutsiyamizning asos bo'layotganini ko'rish quvonchli hol albatta.

Xulosa. Yoshlar eng bebaho va juda muhim resurs hisoblanadi, shuning uchun ularga sarflangan sarmoya ko'p karra o'zini qoplaydi». Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Yoshlar-2023» Strategiyasidan. Navqiron avlodini vakillari tomonidan Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz «Yoshlar Konstitutsiyasi deya e'tirof etilayotganligi ham bejiz emas aslida. Yoshlarga g'amxo'rlik masalasida o'ziga muhim vazifani bo'yniga olgan Konstitutsiyamiz normalari nafaqat O'zbekiston yoshlari manfaati, balki butun jamiyatimiz va xalqimiz kelajagi uchun ahamiyatlidir. Hech shubhasiz, oradan yillar, asrlar, o'tadi lekin xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi hisoblangan Qomusimiz yangi-yangi avlodlar uchun hayot qomusi, davrning o'zi o'rtaga qo'yadigan dolzarb muammolarni bartaraf etish yo'lida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. «O'zbekiston nashriyoti -2023»
2. O'zbekiston Konstitutsiyaviy referendumini referendumi 2023. Vikipediya [https://search.app?link=https%3A%2F%2Fuz.m.wikipedia.org%2Fwiki%2FO%25CA%25BBzbekiston_konstitutsiyaviy_referendumi_\(2023\)&utm_campaign=aga&utm_source=agsadl1%2Csh%2Ffx%2Fgs%2Fm2%2F4](https://search.app?link=https%3A%2F%2Fuz.m.wikipedia.org%2Fwiki%2FO%25CA%25BBzbekiston_konstitutsiyaviy_referendumi_(2023)&utm_campaign=aga&utm_source=agsadl1%2Csh%2Ffx%2Fgs%2Fm2%2F4).
3. Inson huquqlari mustaqillikning 32 yilligi nigohida: kecha va bugun – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti. https://search.app?link=https%3A%2F%2Foz.illp.uz%2Finson-huquqlari-mustaqillikning-32-yilligi-nigohida-kecha-va-bugun%2F&utm_campaign=aga&utm_source=agsadl1%2Csh%2Ffx%2Fgs%2Fm2%2F4.
4. YOSHLAR HUQUQLARI: IMKONIYAT VA HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI https://search.app?link=https%3A%2F%2Fcyberleninka.ru%2Farticle%2Fn%2Fyoshlar-huquqlari-imkoniyat-va-himoya-qilish-mexanizmlari%2Fviewer&utm_campaign=aga&utm_source=agsadl1%2Csh%2Ffx%2Fgs%2Fm2%2F4.
5. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir https://search.app?link=https%3A%2F%2Fconstitution.uz%2Foz%2Fpages%2Fprezident-maruzasi_25yil&utm_campaign=aga&utm_source=agsadl1%2Csh%2Ffx%2Fgs%2Fm2%2F4.
6. <https://lex.uz/docs/-20596>.